



«Universal Mobile Systems»
Mas'uliyati cheklangan jamiyati

Общество с ограниченной
ответственностью
«Universal Mobile Systems»

O'zbekiston, 100000
Toshkent shahri, Amir
Temur shoh ko'chasi, 24.
Tel: (+99897) 403 83 35
Faks: (+99871) 235 81 60,
e-mail: info@mobi.uz
www.mobi.uz

“TASDIQLAYMAN”

“UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS” MChJ
Bosh direktorning texnika va AT bo'yicha o'rinosari



A.R. Abduraxmanov

2026-y. “11” 08

“Universal Mobile Systems” MChJ ehtiyojlari uchun

**Citrix NetScaler tarmoq uskunalarini texnik qo'llab-quvvatlashni faollashtirish bo'yicha
xizmatlar ko'rsatish uchun**

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar..... **Ошибка! Закладка не определена.**
 - 1.1 Ko'rsatilayotgan xizmatlar nomi 3
 - 1.2 Ko'rsatilayotgan xizmatlardan foydalanishning asosi va maqsadi..... 3
 - 1.3 Xizmatlar ro'yxati (SLA) **Ошибка! Закладка не определена.**
2. Qo'llanish sohasi..... **Ошибка! Закладка не определена.**
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar **Ошибка! Закладка не определена.**
4. Xizmat ko'rsatish muddatlari **Ошибка! Закладка не определена.**
5. Xavfsizlik talablari **Ошибка! Закладка не определена.**
6. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar. **Ошибка! Закладка не определена.**
7. Kafolatlar hajmi va/yoki taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar..**Ошибка! Закладка не определена.**
8. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni berish tartib-taomili**Ошибка! Закладка не определена.**
9. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar **Ошибка! Закладка не определена.**
10. Qo'shimcha talablar **Ошибка! Закладка не определена.**
11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati **Ошибка! Закладка не определена.**
12. Ilovalar ro'yxati **Ошибка! Закладка не определена.**

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Ko'rsatilayotgan xizmatlar nomi

“Universal Mobile Systems” MChJ (keyingi o‘rinlarda - Buyurtmachi) ning texnologik maydonchalarida o‘rnatilgan Citrix NetScaler kompaniyasi ishlab chiqaruvchisining yuklama muvozanatlagichlari tarmoq uskunalari (keyingi o‘rinlarda - Uskuna) texnik qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan ta'mirlash, almashtirish va ehtiyot qismlar bilan ta'minlash xizmatlarini boshqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

1.2 Ko'rsatilayotgan xizmatlardan foydalanishning asosi va maqsadi

Uskunalarni uzluksiz texnik qo‘llab-quvvatlashni faollashtirishdan maqsad — kompaniya abonentlarining ma'lumotlari va ularning xizmatlarini qayta ishlovchi tizimlarni, billing tizimlarini, mobil radioaloqa tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va marketing tizimlarini qo‘llab-quvvatlash hamda Buyurtmachining uskunolari va axborot tizimlaridagi nosozliklar bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

Loyihani amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- Uskunaning kafolatli texnik qo‘llab-quvvatlash muddati tugashi;
- ushbu platformada ishlaydigan uskunalar va IT-xizmatlarning ishonchliligi va nosozliklarga chidamliligini ta'minlash;
- “Universal Mobile Systems” MChJning IT-infratuzilma uskunalarini texnik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan budget mablag‘lari mavjudligi;
- 2026-yil uchun IT bo'yicha xaridlar rejasi.

1.3 Xizmatlar ro'yxati (SLA)

Tarmoq uskunasi uchun amaldagi xizmat ko'rsatish shartnomasi: **Service Agreement Order Number – 0002508918, Company ID: 51013224.**

Joriy servis shartnomasining amal qilish muddati: **2026-yil 1-oktabrgacha.**

Texnik qo‘llab-quvvatlash darajasi: **Citrix Silver Support** - mutaxassisning keyingi ish kunida joyiga chiqishi bilan xizmat ko'rsatish, Buyurtmachidan xizmat ko'rsatish uchun arizalarni kecha-yu kunduz qabul qilish.

Xizmatning ushbu darajasi doirasida quyidagi opsiyalar nazarda tutilgan:

Funksional	Silver Support
Telefon va Internet orqali texnik yordam xizmatidan cheklanmagan tarzda foydalanish imkoniyati	Ish vaqtida
Amal qilish muddati	1 yil
RMA	Yoqilgan
Hodisalar soni	Cheksiz
Dasturiy ta'minot yangilanishlari va tuzatishlaridan ularning paydo bo'lishiga qarab foydalanish imkoniyati	Yoqilgan
Ariza holatini onlayn o'rnatish va kuzatib borish	Yoqilgan

Arizalarni qabul qilish va Ijrochi bilan hamkorlik qilish telefon orqali ham, elektron pochta orqali ham amalga oshiriladi.

Ijrochi quyidagilarning bajarilishini ta'minlashi kerak:

- a) 2-jadvalda ko'rsatilgan komplektatsiyadagi Uskunada apparat nosozliklari yuzaga kelganda konsultatsiya berish.
- b) Uskunalar turkumi (lineykasi)ning funksional imkoniyatlari bo'yicha konsultatsiya berish.
- c) Uskunani konfiguratsiya qilish va undan foydalanish masalalari bo'yicha konsultatsiyalar.
- d) Apparat va dasturiy mahsulotlarning yangilanishlari (upgrade), versiyalari (update) va tuzatishlarini (patches) o'rnatish bo'yicha konsultatsiyalar.
- e) Uskunalarining avariya holatlariga yo'l qo'yimaslik uchun oldini olish choralari ko'rish bo'yicha konsultatsiyalar.
- f) Uskunalar va dasturiy ta'minotda yuzaga keladigan nosozliklarni oldindan diagnostika qilish va bartaraf etish bo'yicha konsultatsiyalar.
- g) Uskunalarni kengaytirish va modernizatsiya qilish masalalari bo'yicha konsultatsiyalar.
- h) Uskuna va unga o'rnatilgan dasturiy ta'minotning ishlashi bilan bog'liq boshqa texnik masalalar.
- i) Konsultatsiyalar Buyurtmachi xodimlari tomonidan yuborilgan so'rov to'liq yopilguniga qadar o'tkazilishi kerak. Konsultatsiya yordamida muammoni hal qilishning imkoni bo'lmasa, konsultatsiya o'tkazgan Ijrochining mutaxassisi so'rovni (arizani) texnik qo'llab-quvvatlashning keyingi darajasiga o'tkazishi va ushbu so'rovning (arizaning) kelgusidagi bajarilishini nazorat qilishi shart.
- j) Xizmat ko'rsatish arizalari, nuqson dalolatnomalari, uskunalar va butlovchi qismlarni almashtirish dalolatnomalarini hujjatlashtirish.
- k) Uskunalar va tarkibiy qismlarning ishlash qobiliyatini tiklash.
- l) Uskunalarda reglament va profilaktika ishlari.

Reglament va profilaktika ishlari reglament va profilaktika ishlarining hajmi va mazmunini, shuningdek, ishlarni bajarish jadvalini, ularni bajarish davriyligini va profilaktika ishlarini bajarish tartibiga qo'yiladigan talablarni tavsiflovchi tasdiqlangan hujjat asosida o'tkaziladi.

Qo'llab-quvvatlash so'rovi (xizmat so'rovi) quyidagi darajalarga muvofiq aniqlanadi:

1-jadval

Daraja	Talab
1-darajali muhimlik	1. Diagnostika o'tkazish – 2 soat. 2. Diagnostika o'tkazilgandan so'ng 2 soat ichida portalda keys ochish va ishlab chiqaruvchidan butlovchi qismlarga buyurtma berish. 3. Butlovchi qismlarni yetkazib berish va almashtirish - 7 kalendar kun.
2-darajali muhimlik	1. Diagnostika o'tkazish – 1 kun. 2. Diagnostika o'tkazilgandan so'ng 8 soat ichida portalda keys ochish va ishlab chiqaruvchidan butlovchi qismlarga buyurtma berish. 3. Butlovchi qismlarni yetkazib berish va almashtirish - 15 kalendar kun.
3-darajali muhimlik	1. Diagnostika o'tkazish – 2 kun. 2. Diagnostika o'tkazilgandan so'ng ish kuni ichida portalda keys ochish va ishlab chiqaruvchidan butlovchi qismlarga buyurtma berish. 3. Butlovchi qismlarni yetkazib berish va almashtirish - 40 kalendar kun.
Boshqa talablar: • Butlovchi qismlarni almashtirish bo'yicha ishlarni olib borish. Bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot, nuqson dalolatnomalarini tayyorlash – 1 ish kuni.	

- Maslahat uchun qilingan so'rovga 4 ish kuni ichida javob taqdim etish.

Hodisaning muhimlik darajalari quyidagicha belgilanadi:

- 1-darajali muhimlik – biznesga kritik yoki jiddiy ta'sir ko'rsatish: masalan, ishlab chiqarish muhitining yomonlashuvi, ishlab chiqarish tizimi yoki ilovasining ishdan chiqishi / jiddiy xavf, ma'lumotlarning shikastlanishi/yo'qolishi yoki xavfsizlik darajasining pasayish xavfi;
- 2-darajali muhimlik – biznesga cheklangan ta'sir yoki biznes xavfi: masalan, muhim noishlab chiqarish muhiti yoki tizimli muammo, ishlab chiqarish muhiti mavjud, ammo ba'zi funksiyalar cheklangan yoki yomonlashgan, foydalanish qat'iy cheklangan;
- 3-darajali muhimlik – biznesga ta'sir qilmaydi: masalan, noishlab chiqarish tizimi (masalan, test tizimi) yoki joyida chetlab o'tish mumkin bo'lgan muhim bo'lmagan muammo, qurilmalar, boshqa maslahat masalalari.

Ijrochi Buyurtmachidan qabul qilingan muammolarning muhimlik toifalariga (ustuvorliklarga) muvofiq Uskunalarini texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatishi shart.

Ijrochining Texnik yordam xizmatiga murojaat qilinganda, Buyurtmachi mutaxassislari xizmat ko'rsatish so'rovining muhimlik darajasini o'zlari belgilaydilar, agar aylanma yechim taqdim etilsa, u pasaytirilishi mumkin. Xizmat muammo bartaraf etilguniga qadar yoki Buyurtmachi maslahatga ehtiyoj qolmadi deb hisoblaguniga qadar ko'rsatiladi.

Ijrochi Buyurtmachini Xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlar bilan ta'minlaydi.

Ijrochi Buyurtmachining ushbu texnik topshiriqqa tegishli dasturiy ta'minoti va uskunalarini Buyurtmachining mavjud hisob qaydnomasida texnik qo'llab-quvvatlash xizmati tizimida ro'yxatdan o'tkazishi shart.

Ijrochi Xizmatlarni to'liq hajmda, sifatli va o'z vaqtida ko'rsatish majburiyatini oladi. Uskunaning butlovchi qismlarini almashtirish yuqorida ko'rsatilgan 1-jadvalga muvofiq tartibda amalga oshiriladi.

Xizmatlar ko'rsatilishiga qarab, Ijrochi Buyurtmachiga tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlarni taqdim etishi shart: ko'rsatilgan Xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi, hisobvara-q-faktura. Ko'rsatilgan Xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari har ikki tomon tomonidan imzolanganidan so'ng xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

Xizmatlar sifati Buyurtmachi tomonidan ularga qo'yiladigan talablarga, shuningdek, odatda shu turdagi Xizmatlarga qo'yiladigan sifatga mos kelishi kerak.

Xizmatlar malakali mutaxassislar tomonidan ko'rsatilishi kerak.

Xizmatlar sifatsiz ko'rsatilgan taqdirda, Ijrochi aniqlangan qoidabuzarliklarni Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda o'z hisobidan tuzatishi shart.

Har bir Tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarish uchun talab qilinadigan barcha litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarning mavjudligini kafolatlaydi.

Texnik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun ingliz va rus tillarini biladigan, tegishli malakaga ega bo'lgan vakolatli shaxs tayinlanishi shart.

Vakolatli shaxs (supervizor/menejer) Xizmatlar Ijrochisi bilan asosiy aloqa qiluvchi shaxs bo'lib xizmat qiladi va Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar ro'yxati doirasida ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni shaxsan nazorat qiladi.

Buyurtmachi Ijrochining xodimlariga xizmat ko'rsatish shartnomasi amal qiladigan davrda uskunadan kecha-yu kunduz jismoniy va masofaviy foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Ijrochining uskunaga masofadan ulanish shartlari Buyurtmachining vakili bilan qo'shimcha ravishda kelishib olinadi.

2. Qo'llanish sohasi

Xizmatlar ko'rsatish joyi: mahalliy ravishda, Buyurtmachining amaldagi manzilida, ya'ni: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 24-uy ("UMS" MChJ Markaziy ofisi) va masofadan. Bunda Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishning kelishilgan qoidalariga muvofiq, ma'lumotlarni shifrlash imkoniyatiga ega bo'lgan standart aloqa kanallaridan foydalaniladi.

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Servis shartnomasi doirasidagi texnik qo'llab-quvvatlash strategiyasi yuqori sifatli xizmat ko'rsatishning yagona yo'li — Ijrochi bilan birgalikda Uskunaning uzluksiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan maqsadli va davomiy sa'y-harakatlar ekanligiga asoslanadi.

Texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarining ijrochisi sifatida Uskunalar Ishlab chiqaruvchisi tomonidan belgilangan standartlarga muvofiq, Uskunalar texnik yordam ko'rsatish huquqini beruvchi hamkorlik maqomi, dilerlik shartnomasi yoki boshqa hujjatga ega bo'lgan ishtirokchi ishtirok etishi mumkin.

Buyurtmachining uskunalari ishlash qobiliyatini tezkorlik bilan tiklash uchun Ijrochining omborida zarur miqdordagi ehtiyot qismlarning majburiy mavjudligi.

Ijrochi Ishlab chiqaruvchi Kompaniya tomonidan avtorizatsiyalangan, Buyurtmachining servis so'rovlari bilan shug'ullanuvchi Texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga ega bo'lishi shart. Buyurtmachiga Ijrochining texnik qo'llab-quvvatlashiga savollar yuborish imkoniyati taqdim etilishi lozim. Ijrochi tavsiyanoma xatlari bilan tasdiqlangan belgilangan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lishi, o'z shtatida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha kamida ikkita sertifikatlangan mutaxassisga ega bo'lishi kerak.

4. Xizmat ko'rsatish muddatlari

Jihozlarga texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatishning majburiy muddati 12 (o'n ikki) oyni tashkil etadi (aniqrog'i, 2026-yil 1-oktabrdan 2027-yil 30-sentabrgacha) va ushbu muddat Ishlab chiqaruvchidagi Mijozning hisob qaydnomasida qayd etilgan texnik qo'llab-quvvatlash muddati tugash sanasidan boshlab hisoblanadi "UMS" MChJ obyektlarida o'rnatilgan va texnik qo'llab-quvvatlash bilan qoplanadigan uskunalar ro'yxati:

Таблица №2

#	01.04.2021ga UMS inv.raqami	Uskunalar nomi	SerialNumber	SAPSalesOrderNumber/ LineItemNumber	soni
1	00000164154	Citrix ADC MPX 5905 Advanced Edition (2x10G SFP+) + 10GE SFP+ and 1GE CU Sold separately Appliance	E923GCXX6G	0002508918/00000200010001	1
2		Citrix ADC MPX 5905 Advanced Edition (2x10G SFP+) + 10GE SFP+ and 1GE CU Sold separately Appliance	EA67GCXXC0	0002508918/00000200020001	1
3		Citrix ADC MPX 5905 Advanced Edition License	LA-0002508918-03520	0002508918/0000030001	1
4		Citrix Access Gateway Platform License	LA-0002508918-03520	0002508918/0000040001	1
5		Citrix ADC MPX 5905 Advanced Edition License	LA-0002508918-03520	0002508918/0000030002	1
6		Citrix Access Gateway Platform License	LA-0002508918-03520	0002508918/0000040002	1

5. Xavfsizlik talablari

Ijrochi Uskunalarni rejali va avariyaaviy diagnostikadan o'tkazishni foydalanish joyidagi xodimlar yordamida yoki Uskunalariga masofadan turib ulanish orqali amalga oshiradi.

Barcha xizmatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ekologik, sanitariya-gigiyena, yong'inga qarshi va boshqa me'yorlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Davriy texnik xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochi texnik vositalarni tashqi va ichki ko'rikdan o'tkazishi hamda tozalashi, kontakt birikmalarini, texnik vositalarning ish qobiliyati sozlamalari parametrlarini tekshirishi va ularning o'zaro ta'sirini sinab ko'rishi lozim.

Texnik vositalarning ish qobiliyatini tiklash Ijrochi tomonidan uskunaning texnik vositalari ish qobiliyatini tiklash bo'yicha yo'riqnomalar va hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi va ularni sinovdan o'tkazish bilan yakunlanishi lozim.

6. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar

Qo'llab-quvvatlash davri uchun xizmatlarni topshirish-qabul qilish har oyda hisobvaraqa-faktura va tegishli davr uchun ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshirilishi kerak.

Har oyda xizmatlar ko'rsatish fakti bo'yicha, oldindan to'lov olingan paytdan boshlab Ijrochi ushbu texnik topshiriqning 2-jadvalida ko'rsatilgan hajmlar va ro'yxatga muvofiq uskunani texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha har oylik xizmat ko'rsatadi. Ijrochi Buyurtmachiga hisobot oyidan keyingi oyning yettinchi kunidan kechiktirmay bir oy uchun hisobvaraqa-faktura va ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi.

Buyurtmachi hisobvaraqa-faktura va ko'rsatilgan Xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini olgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida ularni imzolaydi yoki Xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad etgan holda Ijrochiga qaytaradi. Buyurtmachi xizmatlarni qabul

qilishni asosli ravishda rad etgan taqdirda, Tomonlar uch kun ichida aniqlangan kamchiliklar va tuzilgan Shartnoma shartlaridan chekinishlar to'g'risida dalolatnoma tuzadilar va ularni bartaraf etish muddatlarini ko'rsatgan holda imzolaydilar.

Xizmatlarni qabul qilishda aniqlangan kamchiliklar va tuzilgan Shartnoma shartlaridan chetga chiqishlar Ijrochi tomonidan 10 (o'n) ish kuni ichida o'z hisobidan bartaraf etiladi.

7. Kafolatlar hajmi va/yoki taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Ijrochi nosoz uskunalar/detallarni ta'mirlaydi va/yoki almashtiradi.

Buyurtmachi Ijrochi bilan Ishonch telefoni (telefon, faks, e-mail) yoki boshqa mavjud usul orqali bog'lanadi. Uskunalarni demontaj qilish bo'yicha keyingi harakatlarni Ijrochi o'z zimmasiga oladi.

Texnik qo'llab-quvvatlash jarayonida almashtirilgan uskunaning kafolat muddati foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab kamida 12 oyni tashkil etadi.

Ijrochi 1.3-bandda belgilangan muddatlarga muvofiq uskunaning ta'mirlangan yoki almashtirilgan qismlarini yetkazib berishni tashkil etadi.

Ijrochi o'z xohishiga ko'ra har qanday nosoz komponentni ta'mirlashi yoki avval fabrika sharoitida ta'mirlangan komponentga almashtirishi mumkin.

O'rnatish joyida ehtiyot qismlar va sarflash materiallarining yetarli miqdorda saqlanishi uchun ijrochi javobgardir.

8. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni berish tartib-taomili

Talablar qo'yilmaydi.

9. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar

Talablar qo'yilmaydi.

10. Qo'shimcha talablar

Buyurtmachining amaldagi ichki tartib-qoidalariga, nazorat-ruxsat berish rejimiga, ichki nizomlarga, yo'riqnomalar va talablarga rioya qilish texnik qo'llab-quvvatlashning majburiy sharti hisoblanadi, Buyurtmachi bu haqda Ijrochini xabardor qiladi. Buyurtmachi Ijrochiga bildirilgan muammolarni hal qilish uchun Ijrochi bilan aloqa qilish vakolatiga ega bo'lgan xodimlarning ro'yxati va aloqa ma'lumotlarini taqdim etadi. Xizmatning aloqa ma'lumotlari o'zgarganda, Ijrochi Buyurtmachiga bunday o'zgarishlardan kamida 3 (uch) kun oldin tegishli bildirishnoma yuborishi shart.

11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

№	Qisqartma	Qisqartma rasshifrovkasi
1	RMA	Materiallarni qaytarishga ruxsatnoma bo'yicha tovarni almashtirish
2	DT	Dasturiy ta'minot
3	SLA	Service Level Agreement - Xizmat darajasi haqida kelishuv
4	Patches (patch)	Dasturiy ta'minotdagi muammolarni bartaraf etish uchun ishlatiladigan avtomatlashtirilgan alohida yetkazib beriladigan dasturiy vosita
5	Firmware (mikrokod)	Proshivka, mikrokod

12. Ilovalar ro'yxati

Ilovalar ro'yxati taqdim etilmaydi.

Xizmatlar ko'rsatishda mas'uliyatni taqsimlash matritsasi

Texnik xizmat ko'rsatish	Ijrochi	Buyurtmachi
Tizimning mavjudligi		
Muammoning ustuvorligini aniqlash va tasniflash, Citrix NetScaler'da yechim uchun so'rovni ochish	A	R
Ehtiyot qismlarni yetkazib berish, shu jumladan bojxona rasmiylashtiruv va logistika	R	-
Ehtiyot qismlarni o'rnatish	R	A
Buyurtmachining uskunasi so'rov bo'yicha sozlash	A	R
Hisobot davri uchun muammolarni hal qilish statistikasini taqdim etish	R	A
Barcha uskunalar Citrix NetScaler portalida ro'yxatdan o'tkazish	R	A
Dasturiy ta'minotni yangilash, tuzatish va moslashtirish		
Protsedura usulini taqdim qilish	R	A
O'rnatish vaqtini belgilash	A	R
Dasturiy ta'minotni o'rnatish	R	A
O'rnatilgan dasturiy ta'minotning ishlashini tekshirish, yangi dasturiy ta'minotda qolish yoki eski dasturiy ta'minotga qaytish haqida qaror qabul qilish	A	R
Tizimni qayta sozlash xizmatlari va tavsiyalar		
Texnik talablarni taqdim etish	R	R
Texnik talablarni joriy qilish	R	A
Texnik tavsiyalarni taqdim etish	R	I

R (om angl. Responsible) – bevosita ijrochi;

A (om angl. Accountable) – ijrochining ishini boshqaradigan mas'ul shaxs;

C (om angl. Consulted) – maslahatchi (mutaxassis yoxud aniq qarorlar qabul qilingunga qadar mas'ul shaxs yordamga murojaat qiladigan soha bo'yicha ekspert);

I (om angl. Informed) – kuzatuvchi, xabardor qilinadigan shaxs (vazifa bajarilishining borishi (yoki natijalari) to'g'risida xabardor qilinishi lozim bo'lgan shaxs

Ishlab chiqilgan:

TB ATD yetakchi mutaxassisi

 Ye.A. Yatskevich

Kelishilgan:

TB ATD AT bo'yicha direktor

TB ATD AT infratuzilmasidan foydalanish bo'limi boshlig'i

TB LBD direktor

 U.A. Mavlyanov
 N.F. Sadikov
 N.Sh. Saliyev